

O'zb.2
81
I-96

SAODAT ISRAILOVA

**“KO‘K” LEKSEMASI
SEMANTIKASI
VA TEZAURUSI**

026.2
81
I - 96

O'quv zali

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ISRAILOVA SAODAT TURAPOVNA

**“KO‘K” LEKSEMASI
SEMANTIKASI VA TEZAURUSI**

Monografiya

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2023



UO'K: 494.375
KBK: 81.633.1
I 96

Israilova, Saodat Turapovna.

“Ko‘k” leksemasi semantikasi va tezaurusi [Matn] : Monografiya /
S.T. Israilova. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 124 b.

Mazkur monografiyada “ko‘k” milliy-madaniy birligining etimologik, etnolingvistik xususiyatlariga doir mavjud nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishga xizmat qilishi, lingvopragmatika, semantikada olib borilayotgan tadqiqot ishlariga, xususan, leksik-paradigmatik munosabatlardan tahlilida, tezaurus modeli asosida o‘zbek tili lug‘at sathiga doir ma’lumotlar bazasini shakllantirishda nazariy asos vazifasini o‘tashi yoritilgan.

Monografiya oliy ta’lim muassasalarini bakalavriat yo‘nalishida o‘qitiladigan “Hozirgi o‘zbek tili” va “O‘zbek tili tarixi” fanlarini o‘qitish jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan. Undan umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili o‘qituvchilari va mazkur masala bilan qiziqqani keng kitobxonlar ommasi ham foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

Xolmanova Z.T. – Filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Mengliyev B. – Filologiya fanlari doktori, professor.

Keldiyorova G.S. – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Monografiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2023-yil 24-may 5-sonli yig‘ilishida nashrha tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9195-4-9

© Israilova S.T.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.

KIRISH

Jahon tilshunosligida rang nazariyasi va simvolikasi tarixiy-tadrijiy aspektida tadqiq etilgan. Lisoniy ongdagi rang bilan bog'liq kognitiv axborot, mental leksikon, madaniy belgilar qiyosiy, chog'ishtirma aspektida sinxron yondashuv asosida tahlil etilgan. Turli tillardagi rang bilan bog'liq tushunchalar, milliy-madaniy munosabatlar konseptual asosda yoritilgan. Antropotsentrizm yo'nalishining asosiy masalasi hisoblangan inson omili bilan aloqadorlik ranglar semantikasini etimologik nuqtai nazardan tahlil etishni, yangi tushunchalarning shakllanish jarayonini izohlashni, ma'no imkoniyatlarini, kognitiv xususiyatlarini, pragmatik qiymatini an'anaviy metodlar va zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida tahlil qilishni taqozo etadi.

Dunyo tilshunosligida ranglar bilan bog'liq mifologik dunyoqarash, rang semiotikasining universal va spesifik belgilari, rang bildiruvchi leksemalarning ma'no qirralari, lingvopoetik xususiyatlari o'rganilgan. Rang bildiruvchi leksemalar semantikasi keng qamrovi, konseptual jihatdan xilma-xilligi, assotsiativ maydon hosil qilishi, kognitiv bilim, pragmatik ma'no va psixolingvistik yondashuvni aks ettirishi bilan ajralib turadi. Rang bildiruvchi leksemalar semantikasini tadqiq qilish olamning lisoniy manzarasini yoritishda, lisonning mental xususiyatlari, tushunchalarni anglashning kognitiv asoslarini tahlil qilishda, leksema semantikasidagi tarixiy lingvistik jarayonlarni izohlashda ahamiyatlidir. Shu nuqtai nazardan, madaniy munosabatlar talqinida muhim o'rinn tutgan ranglar simvolikasi va rang bilan bog'liq lug'aviy birliklar semantikasi, etimologiyasi va pragmatik xususiyatlari tahlili dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik o'zbek tilining tarixiy ildizlarini asoslash, qadimiy manbalarini tadqiq qilish, o'zbek tilini genetik aloqador bo'lgan tillar taraqqiyotiga qiyosan tahlil qilish imkonini yaratdi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida rang bildiruvchi leksemalarning inson hayotida tutgan o'rni, rang bilan bog'liq semantik jarayonlar, ranglar semantikasining maqollar, iboralar, hikmatli so'zlar va badiiy matndagi funksional jihatlari tadqiqi til birliklarining kommunikatsiyadan tashqari akkumulyativ, emotsional-ekspressiv

UO·K: 494.375

KBK: 81.633.1

I 96

Israilova, Saodat Turapovna.

“Ko‘k” leksemasi semantikasi va tezaurusi [Matn] : Monografiya /
S.T. Israilova. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 124 b.

Mazkur monografiyada “ko‘k” milliy-madaniy birligining etimologik, etnolingvistik xususiyatlariiga doir mavjud nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishga xizmat qilishi, lingvopragmatika, semantikada olib borilayotgan tadqiqot ishlariga, xususan, leksik-paradigmatik munosabatlar tahlilida, tezaurus modeli asosida o‘zbek tili lug‘at sathiga doir ma’lumotlar bazasini shakllantirishda nazariy asos vazifasini o‘tashi yoritilgan.

Monografiya oliv ta’lim muassasalari bakalavriat yo‘nalishida o‘qitiladigan “Hozirgi o‘zbek tili” va “O‘zbek tili tarixi” fanlarini o‘qitish jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan. Undan umumiy o‘rtta ta’lim maktablari ona tili o‘qituvchilari va mazkur masala bilan qiziqqani keng kitobxonlar ommasi ham foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

Xolmanova Z.T. – Filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Mengliyev B. – Filologiya fanlari doktori, professor.


Keldiyorova G.S. – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Monografiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2023-yil 24-may 5-sonli yig‘ilishida nashrha tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9195-4-9

© Israilova S.T.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.



KIRISH

Jahon tilshunosligida rang nazariyasi va simvolikasi tarixiy-tadrijiy aspektida tadqiq etilgan. Lisoniy ongdagi rang bilan bog'liq kognitiv axborot, mental leksikon, madaniy belgilar qiyosiy, chog'ishtirma aspektida sinxron yondashuv asosida tahlil etilgan. Turli tillardagi rang bilan bog'liq tushunchalar, milliy-madaniy munosabatlar konseptual asosda yoritilgan. Antropotsentrizm yo'nali shining asosiya masalasi hisoblangan inson omili bilan aloqadorlik ranglar semantikasini etimologik nuqtai nazardan tahlil etishni, yangi tushunchalarning shakllanish jarayonini izohlashni, ma'no imkoniyatlarni, kognitiv xususiyatlarni, pragmatik qiymatini an'anaviy metodlar va zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida tahlil qilishni taqozo etadi.

Dunyo tilshunosligida ranglar bilan bog'liq mifologik dunyoqarash, rang semiotikasining universal va spesifik belgilari, rang bildiruvchi leksemalarning ma'no qirralari, lingvopoetik xususiyatlari o'rganilgan. Rang bildiruvchi leksemalar semantikasi keng qamrovi, konseptual jihatdan xilma-xilligi, assotsiativ maydon hosil qilishi, kognitiv bilim, pragmatik ma'no va psixolingvistik yondashuvni aks ettirishi bilan ajralib turadi. Rang bildiruvchi leksemalar semantikasini tadqiq qilish olamning lisoniy manzarasini yoritishda, lisonning mental xususiyatlari, tushunchalarni anglashning kognitiv asoslarini tahlil qilishda, leksema semantikasidagi tarixiy lingvistik jarayonlarni izohlashda ahamiyatlidir. Shu nuqtai nazardan, madaniy munosabatlar talqinida muhim o'rinni tutgan ranglar simvolikasi va rang bilan bog'liq lug'aviy birliklar semantikasi, etimologiyasi va pragmatik xususiyatlari tahlili dolzARB ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik o'zbek tilining tarixiy ildizlarini asoslash, qadimiy manbalarini tadqiq qilish, o'zbek tilini genetik aloqador bo'lgan tillar taraqqiyotiga qiyosan tahlil qilish imkonini yaratdi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida rang bildiruvchi leksemalarning inson hayotida tutgan o'rni, rang bilan bog'liq semantik jarayonlar, ranglar semantikasining maqollar, iboralar, hikmatli so'zlar va badiiy matndagi funksional jihatlari tadqiqi til birliklarining kommunikatsiyadan tashqari akkumulyativ, emotsiyal-ekspressiv

xususiyatlarini yoritishda ahamiyatlidir. Rang bildiruvchi leksemalar va ularning semantik taraqqiyoti tillarning umumiy rivoqlanish bosqichidan hozirgacha bo‘lgan leksik-semantik jarayonlarni kuzatishda muhim qiymatga ega.

Jahon, rus va o‘zbek tilshunosligida ham “ko‘k” va boshqa ranglar bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy ishlar mavjud¹. Ranglar nazariyasiga oid dastlabki ilmiy xulosalar V.Alpatovga tegishlidir². L.Samarina umumiy madaniyatdagi ranglarni o‘rgangan³. A.Vejbiskaya rang narsaning xususiyatlaridan kelib chiqib predmetga berilishi haqidagi qarashlarini bayon qilgan, tafakkur, idrok bilan bog‘liq jihatlarini, milliy-madaniy belgilarni aks ettirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. *Ko‘k/siniy* rangining ilmiy asosdagи tahlilini amalga oshirgan⁴. O.Frolova yapon tilidagi rang bildiruvchi so‘zlarga e’tibor qaratgan⁵, yapon tadqiqotchisi F.Kunio qizil, olovrang, sariq, yashil, havorang, ko‘k va binafsharang va ularning madaniy ma’nosini tadqiq qilgan⁶. E.Samodelova badiiy asardagi rang simvolikasi⁷, O.Sedova esa nasrdagi rang ma’nolarini o‘rgangan⁸. Y.Lotman rang simvolikasini matn misolida tahlil qilgan⁹. V.Maslova rang ma’nosini madaniyatdan tashqari tabiat va

¹Berlin B., Kay P. Basic Colour Terms. Their Universality and Evolution. Berkeley; Los Angeles: Uof California Press, 1969; На материале цветообозначения в языках различных систем. – М.: Наука, 1987. – 140 с.; Семантические универсалии и описание языков. –М.: Языки русской культуры, 1999. – 780 с.; Залевская А.А. Введение в психолингвистику. –М.: Российский гос. гуманит. ун-т, 2000. – 382 с.; Залевская А.А. Психолингвистический подход к анализу языковых явлений / Вопросы языкоизнания, 1999. –С. В1-42; Вежбицкая А. Категория, прототип. Лингвистическая экстралингвистическая семантика: Сб. обзоров. – М. 1992. –С. 28-43.

²Алпатов В.М. Языки культуры. – М.: Языки славянских культур, 2003. – 225 с.

³Самарина Л.В. Традиционная культура и цвет: основные направления и проблемы зарубежных исследований // Этнографическое обозрение.1992.– С.147-156.

⁴ Вежбицкая А.Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – 124 с.

⁵ Фролова О.П. Цветообозначения в японском языке // Языковые категории в лексикологии и синтаксисе. – Новосибирск, 1991. – С. 71-87.

⁶ 福田邦夫色の意味と文化赤橙黄緑青藍紫. – 日本: 研究店, 1979. – 254 р. [Fukuda Kunio. Iro no imi to bunka sekitooyokuseishaishi. – Nihon: Kenkyū-ten, 1979. – 254 р.] – “Фукуда Куню. Кизил, оловранг, сарик, яшил, хаворанг, кўй ва бинифшаранг ва уларнинг маданий маъноси. – Япония: Илмий тадқикот институти, 1979. – 254 б.

⁷ Самоделова Е.А. Символика цвета у С.А.Есенина и свадебная поэзия рязанчины / Филологические науки. – М.,1992.– С. 12-22.

⁸ Седова О.В. Поэтика цвета в прозе Е.И Замятиной. Дисс. ...канд. филол. наук. – Елец, 2006. – 200 с.

⁹Лотман Ю.М.Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Искусство, 2000. – 703с.

predmet bilan bog‘liqligini¹⁰, Y.Yushkina badiiy asarda rang va yorug‘lik muammosini¹¹, A.Kudrina, B.Mesheryakov ilmiy tadqiqot ishlarida turli xil madaniyatdagi ranglar semantikasini yoritgan¹². Yapon tadqiqotchilaridan E.Nakamura badiiy asarlardagi rang tizimini¹³, Y.Yoshioka “Genji haqidagi asar”da¹⁴ aks etgan ranglar bilan bog‘liq tushunchalar lug‘atini o‘rgangan.

Turli tillar madaniyatidagi “ko‘k” rang tushunchasi chog‘ishtirma aspektida tadqiq etilgan. Ingliz, rus va o‘zbek tillarida rang komponentli birliklar qatorida *ko‘k* tushunchasining ham lingvokulturologik, simvolik jihatdan tahlil etilgan¹⁵. Rang bildiruvchi, belgi-xususiyat bildiruvchi so‘zlarning semantik xususiyatlari turkologiya ilmida A.N.Kononov, Y.Koychubayev, F.G. Is’hoqovlar tomonidan tadqiq etilgan.¹⁶

O‘zbek tilshunosligida rang-tusni bildiruvchi leksemalar, shu jumladan, “ko‘k” leksemasi sifat so‘z turkumiga oid izlanishlarda XX asrning 40-yillaridan boshlab tadqiq etilgan. XX asrning 60-

¹⁰Маслова В.А.Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001.– 208 с.

¹¹Юшкина Е.А.Поэтика цвета и света в прозе М.А.Булгакова. – Волгоград, 2008.–201 с.

¹²Кудрина А.В., Мешеряков Б.Г.Семантика цвета в разных культурах // Психологический журнал Международного университета природы, общества и человека. – Дубна, 2011. – 18 с.

¹³Накамура Е Слово о полку Игореве и Повесть о доме Тайра // Слово о полку Игореве: комплексные исследования. – М., 1988. – С. 80-89.

¹⁴ 吉岡幸雄源氏物語の色辞典 – 日本. 研究社, 2008. – 302 р. [Yoshioka Sachio. Genjimonogatari no iro jiten – Nihon: Kenkyushya, 2008. – 302 р.] – ‘Ёшиока Юкио. Генжи хакидаги асарининг ранг лугати. – Япония: Таджикот маркази, 2008. – 302 б.

¹⁵ Садыкова М. Слова, обозначающие цвет и окраску, в узбекском языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1963. – 15 с.; Москович В.А. Семантическое поле цветообозначений. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 1965. – 18 с.; Матчанова И.С. Цветообозначения узбекского языка. – Ташкент, 1984; Фрумкина Р.М. Цвет. смысл, сходство: аспекты психолингвистического анализа. – М.: Наука, 1984. – 175 с.; Васильевич А.П Исследование лексики в психолингвистическом эксперименте. На материале цветообозначения в языках различных систем. – М.: Наука, 1987; Светличная Т.Ю. Сравнительные лингвокультурные характеристики цветообозначения и цветовосприятия в английском и русском языках: Автореф. дисс. канд. филол. наук: Пятигорск, 2003. – 17 с.; Базарбаева А. Когнитивно-семантическая структура цветообозначений в английском, узбекском и русском языках. Дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 2019. – 61 с.

¹⁶ Кононов А.Н. О семантике слов *кара* и *ак* в тюркской географической терминологии // Изв. АН Тадж. ССР. Отделение общественных наук. Вып. V. – Душанбе, 1954. – С.83-85; шу муаллиф. Семантика цветообозначений в тюркских языках. – Тюркологический сборник. – М. 1978. – С. 158-163; Исхаков Ф.Г. Имя прилагательное. Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. II. Морфология, 1956; Е.Койчубаев. Нецветовая сущность топонимических компонентов *ак*, *кара*, *кок*, *сары* в географических названиях / В кн.: Всесоюзная конференция по топонимике. 1965. – 185 с.

yillariga kelib o‘zbek tilshunosligida sifat turkumiga oid so‘zлarni o‘rganishga tilshunos M.Sodiqova katta hissa qo‘shdi. Olima rangtus bildiruvchi sifatlar tadqiqiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi¹⁷. N.Jumatova rang bilan bog‘liq timsollar tavsifida etnografik belgilarga e’tibor qaratgan¹⁸. Z.Pardaev tomonidan amalga oshirilgan o‘zbek tilidagi sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari haqidagi tadqiqotda rang bildiruvchi sifat leksemalar ham tadqiq etilgan. Tadqiqotda *qora, oq, qizil, yashil, ko‘k* kabi faol qo‘llanadigan rang bildiruvchi leksemalarning semantik-uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan¹⁹. M.Ro‘zieva rang simvolikasini tadqiq etib, uni diniy va tasavvufiy tushunchalar bilan bog‘lab ko‘rsatgan²⁰.

Tadqiqot doirasida to‘plangan materiallar “ko‘k” leksemasi semantikasiga doir ilmiy-nazariy jihatdan muhim ma’lumotlar berishi, “ko‘k” leksemasining kognitiv xususiyatlari, pragmatik ma’nolariga oid maqol-matal, ibora va poetik matnlar lug‘atini tuzishga xizmat qilishi ochib berilgan. O‘zbek tilshunosligida muayyan leksemaga oid mukammal ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish va semantik paradigmalar yordamida tezaurus lug‘atlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati o‘zbek tilining semantik manbasini boyitishi, “ko‘k” yadroli birliliklarning paremiologik lug‘at fondini yaratishga xizmat qilishi, oliy o‘quv yurtlarining filologiya yo‘nalishi talabalariga ma’ruza, seminar mashg‘ulotlarini tashkil qilishda samarali foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

¹⁷Садыкова М. Слова, обозначающие цвет и окраску в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1963.

¹⁸ Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шевриятида ранг билан боғлик рамзий образлар. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент, 2000.–13б.

¹⁹ Пардаев З. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари.– Самарқанд, 2004.–7 б.

²⁰Рўзиева М. Ўзбек халк қўшикларида ранг символикаси: Филол. фан. номз....дисс. – Тошкент, 2017. – 23 б.

I BOB. "KO'K" TUSHUNCHASIGA DOIR TADQIQOTLAR TAVSIFI

1.1. "Ko'k" tushunchasining jahon tilshunosligidagi tadqiqi

Tilshunoslikda rang konseptini insonni o'rabi turgan olamni anglashida muhim kognitiv kategoriyalardan biri sifatida ko'p narsa-hodisalarni o'zida aks ettiradigan "madaniy kod", ya'ni "turli xalqlarning o'zaro munosabatlari natijasida "madaniy daltonizm" ni bartaraf etishga imkon beradigan bilimdir". Ranglar har bir millatda o'ziga xos ifodaga, ya'ni konseptga ega bo'lib, u nolisoniy omillar, xususan, millatning dunyoni bilishi bilan bog'liq holda tilda namoyon bo'ladi va rang orqali har bir millat dunyodagi ma'lum hodisalarni tasavvur qiladi.

Rang nazariyasining o'zi bir ilmdir. Ranglarni turli xil odamlarga, yakka tartibda va jamoaviy tarzda, qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish shunday narsaki, ranglardan ilhomlanib, odamlar ish faoliyatlarini, orzu-maqсадларини barpo etishadi. Oddiygina aniq rang va rangning o'zgarishini o'zgartirish ham mutlaqo boshqacha kayfiyat uyg'otadi. Madaniy xilma-hillik shuni anglatadiki, bir mamlakatda bir rang anglatadigan ma'no xursandchilik va baxtiyorlik, boshqa birida tushkunlik bo'lishi mumkin. Insonning murakkab ruhiy holati ranglar orqali yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bunda ranglar tabiiy xususiyatlariga xos ravishda qo'llanadi.

Rang, eng avvalo, e'tiqodiy tushuncha emas, balki tabiiy hodisadir. Shu fizik hodisa xususiyatiga ko'ra insoniyat rangdan e'tiqodiy maqsadlari yo'lida, birinchi navbatda, uning tabiiy xususiyatlarini o'zlashtirgani holda foydalangan. Ranglarga ramz vositasi sifatida, ranglarning qo'llanishiga esa an'anaviy munosabat shaklida yondashish bilan chegaralash, nazarimizda, ozdek. Bu xususiyatlar esa ularning issiq yoki sovuqqa ajralishi bilan ahamiyat kasb etadi. Iliq ranglar – qizil, zarg'aldoq va sariq ranglarni o'z ichiga oladi va shu uchala rangning xilma-xilligidan iborat. Bular olov, kuz yaproqlari, quyoshning chiqishi hamda botishi, umuman, quvvat beruvchi, jo'shqinlik va ijobiy ranglardir.

Koloristika – bu ranglar haqidagi fan bo'lib, u rang madaniyati va tili, rang garmoniyasining poydevoriga tayanadi hamda bir vaqtning o'zida jamiyatning rang madaniyati haqidagi tasavvuriga

ham asoslanadi. Ranglar haqidagi fan juda qadimdan paydo bo‘lgan. Inson rang sirlarini qadam-baqadam ochishga harakat qilgan.

Agar e’tibor bergan bo‘lsangiz, kamalakdagi ranglarni bir-biridan farqlash qiyin, chunki bir rang bilan keyingisi o‘rtasida aniq chegara yo‘q, ya’ni biri boshqasi bilan qorishib ketgan, Ular: qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, ko‘k, pushti, binafsha, ana shu 7 xil ranglarning ichida ko‘zga yaqqol ko‘rinadigan, yanada eng asosiysi hisoblangan 3 xil rang mavjud bo‘lib, ular: qizil, yashil va ko‘kdir. Qolgan 4 ta rang shu 3 ta rangning qo‘shilgan joyida hosil bo‘lgan.

Ranglar olamning lisoniy manzaralarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi, zero turli lingvomadaniy jamoalarda har bir rang ma’lum tushunchalarni, tasavvurlarni ifodalaydi. Ranglar va ularning ramziy ma’no-mohiyatidan bahs yuritish oson emas, albatta. Chunki ranglar u yoki bu xalqning uni qurshab turgan olam, adabiyot va san’atga doir qadimiylar qarashlari bilangina emas, balki kosmogonik, mifologik, diniy-ilohiy tushuncha va tasavvurlari bilan ham bog‘lanib ketgan. Shuningdek, odamlarning dunyoqarashi, yashash sharoitlari, diniy hayot yo‘llarining o‘zgarishi bilan ranglarga munosabat, rangdan ko‘zlangan maqsadlar ham o‘zgarib, ba’zan butunlay yangilanib borgan.

Inson ijtimoiy faoliyatda ranglarga ko‘p murojaat qiladi. Chunki ularning inson ruhiyatiga ta’siri ahamiyatga ega. Inson his-tuyg‘ularini har tomonlama mukammal tarzda ifodalashning eng samarali vositasi tildir. U shunday xususiyatga ega bo‘lganligi uchun ham inson his-tuyg‘ularini “boshqara oladi”, ya’ni uning qalbida turli kechinmalar va hissiyotlar paydo qilish xususiyatiga ega. Inson ruhiyati ranglar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, butun tabiat ranglardan iborat va ranglarni bildiruvchi so‘zlar til leksikasida salmoqli o‘rin tutadi. Rang komponentli birliklar ham o‘z navbatida, inson ruhiyati va his-tuyg‘ularini ifodalashda alohida ahamiyatga ega. Haqiqatdan, biz turmush tarzimizni ranglarsiz tasavvur qila olmaymiz. Bizning kundalik hayotimizni qisman ranglar boshqarishini anglaganimizda, ularning mohiyatlariga to‘g‘ri baho bergen bo‘lamiz.

Qadimdan Sharq mamlakatlarida rang simvolikasiga katta e’tibor berishgan va bularning barchasi Yevropa hamda Osiyoning rang madaniyatiga ta’sir qilgan. Ranglardan juda keng miqyosda

foydalana boshlaganlar. Antik davrda rang estetika kategoriyasi sifatida qabul qilina boshladi.

Eramizgacha bo‘lgan IV asrlardayoq qadimgi grek faylasufi Aristotel rang va rang hodisalarni aniqlashga harakat qilgan. O‘rta asrlarda esa rangni diniy nuqtai nazardan o‘rganish boshlandi. Leonardo da Vinchi garmonik qarama-qarshi ranglarni aniqlagan: bular oq-qora, ko‘k-sariq, qizil-yashil. Shunday qilib, ranglar haqidagi fan paydo bo‘ldi. Olti xil rangli qatorlar haqidagi fikrni F.Runge, A.Shopengauer, U.Adame, E.Delakrua, V.Gog, V.Kandinski va boshqalar rivojlantirdilar.

Nemis shoiri va san‘atshunosi I.Gyoteni²¹ ko‘proq ranglarning kishi organizmiga ko‘rsatadigan ta’siri qiziqtirgan. Gyote ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratadi. Iliq ranglarga qizigan temirning taftini eslatuvchi sariq, zarg‘aldoq, qizil, yashil kabi ranglar kiradi. Ular ko‘zga tez tashlanadi. Sovuq ranglar esa muz, suv, osmonning ranglarini eslatuvchi ko‘k, yashil, zangori va binafsharang, havorang, to‘q yashil, ko‘kish ranglardir. Tabiatdagi mavjud ranglarni ikki qismga axromatik va xromatik ranglarga ajratish muhimdir.

Rang nazariyasining o‘zi bir ilm bo‘lib, u bizni falsafiy mushohadaga chorlaydi. Shuning uchun til va matnda ranglarning talqini turli xil ishlarda tadqiq qilingan V.Alpatov, F.Kunio, L.Samarina, A.Kudrina, B.Mesheryakov, V.Maslova, A.Vejbiskaya, Y.Lotman kabi olimlarning bu xususidagi ishlarini ta’kidlab o‘tish lozim.

Yevropa va dunyo tilshunosligida ham ranglarning turli xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, ilmiy ishlarning ko‘p qismida tadqiqotchilar diqqat markaziga turli xil nuqtai nazardan madaniyatdagi ranglarni tahlil qilish muammosini qo‘ygan. Bu yo‘nalishda qanday ranglar tasnifi mavjud, rang nimalarga asoslanadi, ranglar xususiyati, uni to‘g‘ridan to‘g‘ri va nisbiy berilgandagi ma’nolari ochib berilgan.

Rang nazariyasi masalalari bo‘yicha dastlabki tadqiqotlardan biri V.Alpatovga tegishlidir²². O‘z ishida V.Alpatov rang shkalasi va uning nomi nima sabablarga ko‘ra shu predmetga berilganligiga to‘xtaladi. U yapon tilida o‘n ikki xil rang bor, ulardan so‘ng “iro”

²¹Гёте И.В. Избранные сочинения по естествознанию. – М.: Наука, 1957. – С. 533;

²²Алпатов В.М. Язык и культура. – М.: Языки славянских культур, 2003. – С.76-87.

qo'shimchasi qo'shiladi va ranglar nimagadir o'xshatish orqali ifodalanilgan deb, yapon tilidagi besh xil kamalak rangini darajalab ko'rsatadi.

Ranglar tarkibida ko'k rangining o'ziga xos xususiyatlarining o'rganilishiga A.Vejbiskaya olg'a surgan fikrlar asos bo'lган. U o'z tadqiqotida yapon tilidagi *yashil*, *havorang*, ko'k ranglarining farqlarini tushuntiradi va qachon qaysi rang ishlatilishini ko'rsatib beradi²³.

A.Vejbiskaya fikriga ko'ra, rang narsaning xususiyatlaridan kelib chiqib predmetga nom sifatida beriladi. *Aoi* deganda ko'k, *havorang*, *yashil* tushuniladi. Shuning uchun yapon tilida *aoi* rangi ko'k osmon, o't rangi, svetaorning *yashil* rangini ifodalaydi. A.Vejbiskaya predmetning rangini tasvirlashda predmetni inobatga oladi. Ranglarni nomlashda umumiylashtirishga elementlariga, umumiylashtirishga elementlarga: kun va tun, quyosh, olov, o'simlik, osmon va yerni tashkil etishiga, insonning rangni ko'rish hissiyotiga qaraladi²⁴.

O't yoki daraxtga nisbatan *yashil* emas, ko'k rangni ishlatish bu ularning holatiga bog'liq. Masalan, o't-maysalarning, daraxtlarning rangi doimo *yashil*. Lekin ularni yomg'irdan keyin tasvirlaganda yaponlar "*Yomg'irdan so'ng o'tlar yoki daraxt to'q ko'k rangga kirdi*", deydilar. Yaponlar bu bilan u doimo ko'k rangligini emas, yomg'irdan keyin shu holat bo'lganligini nazarda tutadilar. Bundan *midori* – *yashil* deganda narsalarning tabiiy rangiga, *aoi*-ko'k rang narsalarni qandaydir o'zgarish holati yoki vaqtinchalik ko'rish taassurotiga qarab qo'llaniladi. Daryoga nisbatan ham *aoi* – ko'k rangi qo'llaniladi. Chunki daryo turli vaqtida ko'k yoki *yashil* rangda bo'lishi mumkin²⁵.

Yuqoridagi ilmiy ishlarda rangga to'g'ridan to'g'ri emas, unga olamning lisoniy manzarasi, ya'ni til imkoniyatlari orqali yondashilgan. Ranglar tahlili umumiylashtirishga, ya'ni til va adabiyot orqali ko'rildi²⁶. V.Maslova rangning ifodalaniishi madaniyat, tabiat, predmet bilan bog'liq, degan fikrni ilgari suradi. Oxirgi

²³ Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – С.231-291.

²⁴ Ўша асар. – С. 20-21.

²⁵ Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – С.20.

²⁶ Маслова В.А.Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С.208.